

ELEKTRON TO'LOVLARDA ISTE'MOLCHILARNING HUQUQLARINI HIMOYA QILISH MEXANIZMLARI

Ozodboyeva Munavvara Ravshanbek qizi

Berdaq Nomidagi Qoraqalpoq Davlat Universiteti

“Biznes huquqi” mutaxassisligi 2-kurs magistranti

Munavvara.ozodboyeva@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada elektron to'lov xizmatlari sohasida iste'molchilarning huquqiy himoya mexanizmini huquqiy tartibga solish bilan bog'liq bir qator muammolar tadqiq etilgan. Muallif elektron to'lovlarni amalga oshirishda yuzaga keladigan iste'molchilarga qiyinchilik yuzaga keltirayotgan kiber va zamonaviy tahdidlarni tahlil qiladi. Jumladan, mazkur sohadagi qonunchilik va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish mexanizmlarining kamchiliklarini ko'rib chiqadi. Maqolada elektron to'lovlar sohasida abonentlarning shaxsiy ma'lumotlarining himoyalashida bir qator kamchiliklarni ko'rib chiqadi. Tahlillarga asoslangan holda muallif ushbu muhim sohada elektron to'lovlar sohasida iste'molchilar huquqlarini himoya qilishni takomillashtirish yuzasidan tavsiyalar beradi.

Kalit so'lar. Elektron to'lov xizmatlari, iste'molchilar huquqlarini himoya qilish, to'lov tizimlari, to'lov texnologiyalari, to'lovlar sohasidagi firibgarliklar, mablag'larni qatarish.

KIRISH

Bugungi kunda raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi natijasida elektron to'lov tizimlari kundalik hayotimizning ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Mazkur jarayon iste'molchilar uchun beqiyos qulayliklar yaratish bilan birga, bir qator huquqiy muammolarni ham yuzaga keltirmoqda. Shu sababdan elektron to'lovlarda iste'molchilar huquqlarini himoya qilish masalasi hozirgi vaqtda eng dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda mazkur masala tadqiqotchilarning diqqat markazida turibdi. Ko'pchilik iqtisodchilar, huquqshunoslar va axborot texnologiyalari mutaxassislari ushbu sohadagi xavf-xatarlarni o'rganib, echim bermoqda. Elektron to'lovlar doirasida firibgarlik, shaxsiy ma'lumotlarning oshkor etilishi hamda tomonlar o'rtasidagi nizolar tobora kuchayib borayotganligi ushbu muammoga ilmiy va amaliy jihatdan yondashuvni taqozo etmoqda.

Mavzuning ahamiyati bir necha omillar bilan belgilanadi: birinchidan, elektron to'lovlar hajmining yildan-yilga ortib borishi; ikkinchidan, mavjud huquqiy mexanizmlarning raqamli muhitdagi yangi tahdidlarga mos kelmasligi; uchinchidan, iste'molchilarning o'z huquqlari haqidagi bilim darajasining pastligi.

Mazkur maqolaning maqsadi - elektron to'lov tizimlarida iste'molchilar huquqlarini himoya qilishning samarali mexanizmlarini tahlil qilish hamda mavjud kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan takliflar ishlab chiqishdir. Belgilangan maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar oldimizga qo'yiladi:

- Elektron to'lovlar sohasidagi huquqiy-me'yoriy bazani o'rganish
- Iste'molchilar huquqlari buzilishining asosiy sabablarini aniqlash
- Xorijiy davlatlarning bu boradagi tajribasini tahlil qilish va solishtirish
- Samarali himoya mexanizmlarini takomillashtirish yuzasidan xulosalar chiqarish

ASOSIY QISM


Elektron to'lovlar tizimi har qanday rivojlangan va rivojlanayotgan davlatning fuqarolik va iqtisodiy sohasida eng muhim yo'nalishlaridan bir hisoblanadi. Taklif qilinayotgan yondashuv elektron to'lovlar tizimi va fuqarolarning huquqlarini himoya qilish mexanizmlari o'rtasidagi uzviy bog'liqlikka asoslanadi. Ushbu yondashuvga ko'ra elektron to'lovlar tizimida fuqarolarning huquqlarini himoya qilinishi mexanizmi yagona va ishonchli davlat tizimi asosida va yagona qonuniy me'yor asosida amalga oshirilishi, tartibga solinishi va amaliyotga joriy etilishi qonunlarning va elektron to'lov tizimining xavfsizligi sohasida va aholi orasida ijtimoiy va huquqiy mavqeining tobora mustahkamlanib borishiga xizmat qiladi.

Elektron to'lov tizimining fuqarolarning to'lov sohasidagi huquqlarini himoya qilish mexanizmining rivojidagi strategik ahamiyati, avvalo, to'lovlarning yagona standartlar asosida shakllanishida namayon bo'ladi. Elektron to'lovlarning me'yorlashtirilishi turli soha vakillari va xalqaro pul aylanmalarining ishonchli tizimining yuzaga kelishida katta ahamiyat kasb etadi va turli soha mutaxassislari o'rtasida samarali iqtisodiy elektron pul aylanishi muloqotini ta'minlaydi. Elektron pul aylanmasida o'riqcha ovvoragchiliklarsiz pul aylanmasining yengillashuviga xizmat qiladi. Natijada elektron to'lovlar tizimida fuqarolarning huquqlarini himoya qilish mexanizmi qonuniy normativ va amaliy faoliyatida aniqlik va izchillik ta'minlanadi. Taklif qilinayotgan usulning o'ziga xosligi elektron to'lovlar tizimini yaratishda milliy va xalqaro omillarning uyg'unligini saqlashdir. Bir tomondan elektron to'lovlar tizimi aholiga bir qator qulayliklar taklif qilishi barobarida, o'z abonentlarining shaxsiy ma'lumotlarini ilova va tizimlarning yaxshi himoya qilinmasligi yoki tizimlarda uchrab turadigan texnik nosozliklar sababli shaxsiy ma'lumotlarning ommaviy tarzda sizib chiqishi va bundan hackerlarning kiber jinot sodir etishlarida muhim omillardan biri bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, iste'molchilar huquqlarini himoya qilish sohasida davlat nazorati bo'yicha maxsus vakolatlariga ega bo'lgan, jumladan, moliyaviy qonunchilikka rioya etilishini nazorat qiluvchi markaziy ijro etuvchi hokimiyat organi Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish agentligi mavjud. Biroq, ushbu organga adekvat moliyaviy, institutsional va operatsion resurslar,

jumladan, infratuzilma va tegishli darajada tayyorlangan xodimlar yetishmaydi. Salbiy omillardan biri shundaki, mazkur agentlikning vakolatlari faqat “Iste’molchilar huquqlarini himoya qilish to’g’risida”gi Qonunda nazarda tutilgan xizmatlarga taalluqlidir va bu faqat iste’mol krediti bilan cheklanadi”¹ deb ko’rsatib o’tilgan.

Taklif qilinayotgan usulning o’ziga xosligi elektron to’lovlar tizimida iste’molchilar huquqlarini himoya qilish mexanizmini yaratishda milliy va xalqaro omillarning uyg’unligini saqlashdir. Bir tomondan, zamonaviy to’lov usullari naqt pulsiz to’lov tizimlari sifatida shakllanib katta yoshdagi aholiga biroz noqulayliklar yuzaga keltirayotgani aytilsa, ikkinchi tomondan, xalqaro miqyosda bugungi kunda keng qo’llanilayotgan to’lov usullari ekanligini aytib o’tish ham muhimdir. Bularga misol o’laroq quyidagilarni sanab o’tish joiz, Finlit.uz saytidagi onlayn to’lovlar to’g’risidagi maqolada yozilishicha **“Onlayn-to’lovlar – naqd pul ishlatmasdan internetda yoki mobil ilova orqali mahsulotlar yoki xizmatlar uchun to’lovlarni amalga oshirish imkonini beradi. Bu operatsiyalar bank kartalari yoki hisobvaraqlarni veb-saytga (yoki mobil to’lov ilovasiga) ulagan holda amalga oshiriladi. To’lovni elektron pul yordamida ham amalga oshirish mumkin.**

Onlayn to’lov tartibi quyidagicha:



Elektron to'lov tizimi nima?

Elektron to'lov tizimi – internet orqali amalga oshiriladigan to'lovlar tizimidir. Bu kabi tizimdan foydalanish uchun pul mablag'larni yuboruvchi hamda qabul qiluvchi

¹ https://cyberleninka.ru/article/n/problemy-zaschity-prav-potrebiteley-v-sfere-platezhnyh-uslug/viewer_E.J Ganiev “To’lov xizmatlari sohasida iste’molchilar huquqlarini himoya qilish muammolari” mavzusidagi maqola 2024 yil nukus _3 bet

muayyan tizimda ro'yxatdan o'tgan bo'lishlari kerak. Elektron pullarni elektron hamyon yoki to'g'ridan to'g'ri bank kartasidan yuborish mumkin.

Elektron to'lov tizimining asosiy vazifasi to'lovlar xavfsizligini ta'minlashdan iboratdir. Hozirda elektron hamyonlar ochish imkoniyatini taqdim etuvchi ko'pgina to'lov tizimlari mavjud. MDH davlatlarining ko'pchiligida **Yandeks. Pullar, WebMoney va QIWI** kabi elektron to'lov tizimlaridan keng foydalaniladi. Bundan tashqari, mamlakatimizda **OSON** elektron pullar tizimi faoliyat olib bormoqda.

Nima uchun onlayn to'lovlar afzalroq?

Internet orqali to'lanishi mumkin bo'lgan mahsulot va xizmatlar soni doimiy ravishda oshib bormoqda. Uydan chiqmasdan mobil aloqa, kabel televideniyesi, internet, kommunal xizmatlar, soliqlar va jarimalar uchun to'lasa bo'ladi. Banklar va to'lov tashkilotlari onlayn-to'lov orqali mumkin bo'lgan xizmatlar doirasini doimiy ravishda kengaytirmoqda: kredit muassasalar, bolalar bog'chalari, barcha turdagi xizmat ko'rsatish va sug'urta kompaniyalari hamda sayyohlik agentliklarida to'lovlarni amalga oshirish.”²

Yurtimizda moliyaviy iqtisodiyot siyosatini yuritishda elektron to'lovlar tizimini tartibga solish eng ustuvor va strategik yo'nalishlardan biri sifatida baholanadi. Ushbu mavzuda Rahmonova Zamira Zafarjon qizining yozishicha. Elektron to'lov tizimlarining mohiyati va turlari Elektron to'lov tizimlari — bu raqamli texnologiyalar asosida tovar va xizmatlar uchun haqni elektron shaklda to'lash imkonini beruvchi tizimlardir. Ular to'lov jarayonini tez, ishonchli va xavfsiz amalga oshirish imkonini beradi. Ularning asosiy turlari quyidagilardan iborat:

- Bank asosidagi tizimlar – plastik kartalar orqali to'lovlar (UZCARD, HUMO, VISA, MasterCard);
- Mobil to'lov tizimlari – Payme, Click, Apelsin, Paynet kabi ilovalar orqali to'lovlar;
- Elektron hamyon tizimlari – foydalanuvchi hisobidagi raqamli mablag'lar orqali to'lovlar;
- Internet to'lov tizimlari – xalqaro platformalar (PayPal, Stripe, WeChat Pay va boshqalar).

Elektron to'lov tizimlari pul muomalasining tezligini oshiradi, iqtisodiyotdagi naqd pulsiz hisob-kitoblar ulushini kengaytiradi va soliq tushumlarini oshirishga xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasida elektron to'lov tizimlarini huquqiy tartibga solish Elektron to'lov tizimlari faoliyatini tartibga soluvchi asosiy me'yoriy-huquqiy hujjat “To'lovlar va to'lov tizimlari to'g'risida”gi Qonun (2019-yil 1-noyabr). Ushbu qonun to'lov tizimlari ishtirokchilarining huquq va majburiyatlarini, ularning

² <https://finlit.uz/uz/articles/payments-and-transfers/Finli.uz>

faoliyatiga qo'yiladigan talablarni hamda davlat nazoratini belgilaydi. Bundan tashqari, elektron to'lov tizimlariga oid quyidagi qonunlar ham muhim ahamiyat kasb etadi:

- "Elektron tijorat to'g'risida"gi Qonun;
- "Elektron raqamli imzo to'g'risida"gi Qonun;
- O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining normativ hujjatlari.

Mazkur me'yoriy hujjatlar to'lov tizimlari barqarorligini, foydalanuvchilar ma'lumotlarining himoyasini va to'lovlarning shaffofligini ta'minlashga qaratilgan. Markaziy bank to'lov tashkilotlarini litsenziyalash, monitoring qilish va xavfsizlik darajasini nazorat qilish orqali tizimning barqaror faoliyatini kafolatlaydi. Bugungi kunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi iqtisodiyotning barcha sohalariga chuqur kirib bormoqda. Ayniqsa, elektron tijorat va elektron to'lov tizimlari zamonaviy raqamli iqtisodiyotning ajralmas qismiga aylanib bormoqda"³ Ushbu fikr terminologik tizimning davlat tili taraqqiyotidagi o'rnini yaqqol ko'rsata. Blokcheyn texnologiyalari asosida yangi to'lov mexanizmlarini joriy etish;

- Sun'iy intellekt orqali firibgarlikni aniqlash tizimlarini rivojlantirish;
- Moliyaviy savodxonlikni oshirish orqali aholining elektron to'lovlardan foydalanish madaniyatini yuksaltirish.

Elektron to'lov tizimlarining zamonaviy ahamiyati va global rivojlanish tendensiyalari Bugungi kunda elektron to'lov tizimlari global moliyaviy infratuzilmaning ajralmas bo'lagi sifatida nafaqat to'lovlarni amalga oshirish vositasi, balki iqtisodiy islohotlar va raqamli transformatsiyaning strategik omili sifatida e'tirof etilmoqda. Raqamli iqtisodiyotda elektron to'lov tizimlari orqali amalga oshirilayotgan tranzaksiyalar hajmi yildan yilga ortib bormoqda. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, dunyoda har 10 ta moliyaviy operatsiyadan 8 tasi elektron shaklda amalga oshirilmoqda. Rivojlangan mamlakatlarda bu jarayonlar iqtisodiy o'sishni jadallashtirish bilan birga, soya iqtisodiyotini qisqartirish, soliq bazasini kengaytirish va moliyaviy barqarorlikni mustahkamlashda ham muhim rol o'ynamoqda⁴. O'zbekistonda elektron to'lov tizimlarining iqtisodiy ta'siri O'zbekiston iqtisodiyotida elektron to'lov tizimlarining keng joriy etilishi naqd pulsiz hisob-kitoblar ulushini sezilarli darajada oshirdi. Markaziy bank ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yil holatiga ko'ra, respublika bo'yicha elektron to'lovlar hajmi 800 trillion so'mdan

³ ZAMONAVIY TA'LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISH VA UNGA QARATILGAN KREATIV G'OYALAR, TAKLIFLAR VA YECHIMLAR" MAVZUSIDAGI 82-SONLI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ONLINE KONFERENSIYASI www.bestpublication.uz 41 "ELEKTRON TO'LOV TIZIMLARI VA ULARNING HUQUQIY TARTIBGA SOLINISHI"

⁴ The World Bank. *COVID-19 Drives Global Surge in Use of Digital Payments* // World Bank Group. – 2022. – 29 June. – URL: <https://www.worldbank.org/en/news/press-release/2022/06/29/covid-19-drives-global-surge-in-use-of-digital-payments> (murojaat qilingan sana: 21.06.2026).

oshgan. Bu esa to'lov intizomini yaxshilash, moliyaviy muomalalarning shaffofligini ta'minlash va iste'mol madaniyatini oshirishga xizmat qilmoqda. Shuningdek, elektron to'lov tizimlari kichik biznes va tadbirkorlik sub'yektlariga bank xizmatlaridan masofadan foydalanish imkonini yaratib, iqtisodiy faollikni oshiradi. Mobil ilovalar orqali to'lovlar sonining keskin o'sishi (Payme, Click, Apelsin va boshqalar) aholining moliyaviy texnologiyalarga ishonchini kuchaytirgan. Elektron to'lov tizimlarining ijtimoiy ahamiyati:

-Elektron to'lov tizimlari nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy barqarorlikka ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ular: -

aholining moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatini kengaytiradi;

-davlat xizmatlarini (soliq, bojxona, kommunal to'lovlar) tezkor va shaffof shaklda amalga oshirishni ta'minlaydi; -nafaqalar, stipendiyalar, ish haqlarini elektron tarzda yetkazib berish orqali korrupsiya xavfini kamaytiradi;

-aholining moliyaviy savodxonligini oshiradi. Shuningdek, elektron to'lov tizimlari ayollar va yoshlar o'rtasida iqtisodiy faollikni oshirish, ularning mustaqil moliyaviy qaror qabul qilish imkoniyatlarini kengaytirishda ham muhim vosita bo'lib xizmat qilmoqda. Huquqiy tartibga solishda xalqaro tajriba: Jahon amaliyotida elektron to'lov tizimlarini tartibga solish jarayonlari uchta asosiy yo'nalishda amalga oshiriladi: Normativ-huquqiy bazani ishlab chiqish – Yevropa Ittifoqida bu jarayon "PSD2" (Payment Services Directive 2) orqali tartibga solinadi. Ushbu direktiva to'lov xizmatlari ko'rsatish, ma'lumot almashish va xavfsizlik standartlarini belgilaydi. Regulyator va nazorat organlari faoliyati – AQShda Federal Rezerv tizimi va FinCEN (Financial Crimes Enforcement Network) to'lov tizimlari faoliyatini nazorat qiladi.

Bularning barchasi O'zbekistonning moliyaviy barqarorligi va raqamli iqtisodiy salohiyatini oshirishga xizmat qiladi. Mamlakatimizda ham elektron to'lov tizimini rivojlantirish va takomillashtirish bo'yicha keng amaliy ishlar olib borilmoqda. Bu borada qabul qilingan qonun va qonun-osti hujjatlari bank va to'lov tizimini tartibga solishga, elektron tijoratni rivojlantirishga qaratilgan. O'zbekistonda elektron pulni tranzaksiyasi bilan shug'ullanadigan, aholi o'rtasida keng tarqalgan tizim bu Click.uz dir (Paynet va Uzcarddan tashqari). Undagi to'lovlar uyali telefon tarmog'i orqali amalga oshiriladi. Shunday tizimlardan yana biri UPAY to'lov tizimidir. Bu to'lov tizimi 2010 yilda O'zbekiston Savdo-sanoat Palatasi, ATB "Mikrokreditbank" va «Beeline» uyali telefon operatori hamkorligida yaratilgan va boshida «SMS-TO'LOV» degan nom olgan edi. Ishlash prinsipi Click.uz tizimiga o'xshash. Ushbu to'lov tizimlari orqali hozirgi kunda telefon, kommunal, internet xizmatlari, soliq, sug'urta to'lovlari, temir yo'l va avia-chiptalariga buyurtmalar berish operatsiyalarini amalga oshirish mumkin. Mamlakat hududidan internet banking operatsiyalarini amalga oshiradigan yangi tizimlardan bitta bu WEBSUM.UZ tizimidir. WEBSUM bu Internet tarmog'i orqali bir zumda Tovar yoki xizmatlarni sotish yoki xarid qilish konini

beruvchi elektron to'lov tizimidir. Elektron to'lov tizimning afzalliklari quyidagilardan iborat: Haridor o'ziga qulay vaqt, joy va tezlikda mahsulotni tanlash va sotib olish imkoniyatiga ega. Savdo-sotiq faoliyatini ish faoliyat ibilan birga parallel ravishda, ya'ni ishlab chiqarishdan ajralmagan holda olib boorish imkoniyati. Ko'p sonly xaridorlarning bir vaqtning o'zida bir nechta sotuvchilarga murojaat qila olish imkoniyati. Xaridorning yashash joyi, sog'ligi va moddiy ta'minlanish darajasidan qat'iy nazar hamma qatori teng huquqli mahsulot sotib olish imkoniyati. Elektron tijoratda savdoni tashkil qilish korxonalarning raqobatini kuchaytiradi, monopoliyadan chiqaradi va mahsulotlarning ifatini oshirish imkoniyatini beradi. Ushbu ishda elektron to'lov tizimining ijtimoiy va kundalik haoyimizda akamiyatining oshirish va zamonaviy taraqqiyot o'rtasidagi o'zaro uzviylikni tadqiq etish metodidan foydalaniladi. Mazkur yondashuv shuni ko'rsatadiki, electron to'lov tizimlarning yagona me'yoriy andozalar asosida shakllantirilishi va amaliyotga tatbiq qilinishi elektron to'lovlarada iste'molchilarning huquqlarini himoya qilishda rasmiy manbaalarning nufuzini mustahkamlashga bevosita xizmat qiladi. Elektron to'lovlar tizimining rivojlanishi bugungi kunda zamon talabi o'laroq qabul qilinayapdi, yani to'lov tizimlari asosida masofa va vaqni tajash mumkin

XULOSA

Natijalar quyidagilarni ko'rsatmoqdaki: Raqamli transformatsiya va raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi sharoitida elektron to'lov tizimlari (Click, Payme, UZCARD, HUMO va boshqalar) nafaqat pul muomalasini tezlashtiruvchi vosita, balki iqtisodiy barqarorlikni ta'minlovchi strategik infratuzilmaga aylandi. Biroq, sohadagi texnologik rivojlanish sur'ati iste'molchilar huquqlarini himoya qilishning mavjud huquqiy va institutsional mexanizmlaridan ilgarilab ketayotganligi bir qator kiber-tahdidlar va huquqbuzarliklarni yuzaga keltirmoqda. O'tkazilgan tadqiqotlar va qilingan tahlillar asosida quyidagi muhim xulosalarga kelindi: Huquqiy bo'shliqlar: O'zbekiston Respublikasining "To'lovlar va to'lov tizimlari to'g'risida"gi Qonuni sohani umumiy tartibga solsa-da, amaldagi "Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonun ko'proq an'anaviy xizmatlar va iste'mol kreditlariga moslashgan bo'lib, elektron hamyonlar, fishing va ijtimoiy injeneriya oqibatida yo'qotilgan mablag'larni qaytarish (chardjbek) mexanizmlarini to'liq qamrab olmaydi. Institutsional resurslar yetishmovchiligi: Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish agentligi va Markaziy bank moliya bozorida iste'molchilar huquqlarini himoya qilishga mas'ul bo'lsa-da, raqamli firibgarlikning yangi turlariga (kiber-hujumlar, shaxsiy ma'lumotlarning sizishi) tezkor munosabat bildirish uchun maxsus texnik, operatsion va malakali kadrlar resurslariga ehtiyoj sezmoqda. Xalqaro tajribani tatbiq etish zarurati: Yevropa Ittifoqining PSD2 (Payment Services Directive 2) direktivasi va AQShning FinCEN tizimi tajribasi shuni ko'rsatadiki, to'lov xavfsizligini

ta'minlashda ochiq banking standartlari hamda sun'iy intellektga asoslangan antifrod (antifraud) dasturlarini majburiy joriy etish iste'molchi xavfsizligining bosh garovidir.

Tavsiyalar: Elektron to'lovlar sohasida fuqarolarning huquqiy himoyasini kuchaytirish uchun milliy qonunchilikka "raqamli iste'molchi" tushunchasini kiritish, bank tizimida firibgarlik tranzaksiyalarini vaqtincha bloklash (hold qilish) vakolatlarini kengaytirish hamda aholining moliyaviy-raqamli savodxonligini tizimli oshirish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1.O'zbekiston Respublikasining "To'lovlar va to'lov tizimlari to'g'risida"gi Qonuni, 01.11.2019 yildagi O'RQ-578-son. – Milliy qonunchilik ma'lumotlari bazasi (lex.uz).

2.O'zbekiston Respublikasining "Elektron tijorat to'g'risida"gi Qonuni, 29.09.2022 yildagi O'RQ-792-son. – Milliy qonunchilik ma'lumotlari bazasi (lex.uz).

3.O'zbekiston Respublikasining "Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni, 26.04.1996 yildagi 221-I-son. – Milliy qonunchilik ma'lumotlari bazasi (lex.uz).

4.Gniev E. J. Bank xizmatlari bozorida iste'molchilar huquqlarini davlat tomonidan tartibga solish va himoya qilish muammolari // Ilmiy maqola. – T., 2023.

5.Rahmonova Z. Z. Elektron to'lov tizimlarining mohiyati, turlari va O'zbekistonda huquqiy tartibga solinishi // Raqamli iqtisodiyot va moliyaviy texnologiyalar jurnali. – T., 2024.

6.O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining to'lov tizimlari holati bo'yicha 2024-yilgi tahliliy ma'lumotlari // mbank.uz rasmiy sayti.

7.Onlayn to'lovlar va elektron hamyonlardan xavfsiz foydalanish qoidalari // Finlit.uz – O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining aholi moliyaviy savodxonligini oshirish bo'yicha ta'limiy portali materiallari.

8.Directive (EU) 2015/2366 of the European Parliament and of the Council of 25 November 2015 on payment services in the internal market (PSD2). Official Journal of the European Union.